

# BUGUNGI KUN YOSHLARINING TIL VA ADABIYOTNI

## O'RGANISHDAGI INTELLEKTUAL SALOHIYATI

**Islomov Bardoshbek JDPI Chet tillari fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich 410-guruh talabasi.**

*Annotatsiya: Ushbu maqola tilning ahamiyati yoshlarning, til o'rganishga, adabiyotga qay darajada e'tiborli ekanligi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.*

*Kalit so'zlar: Bilim va malaka, chet tili, adabiyot, dars metodi, intellekt, adabiy nutq.*

Bugungi kunda yuksak bilim va malakaga ega bo'lgan zamonaviy yoshlarni chet tillarini bilmagan holda tasavvur etish qiyin. Negaki, bugungi davr talabi yoshlarni o'z mutaxassisligidan tashqari qo'shimcha ravishda til bilishga ham undaydi. Dono xalqimiz «til –aloqa kaliti» deya bejizga aytishmaydi, zero, bugungi kunda chet tillarini mukammal bilgan shaxs har qanday jabhada o'z ish faoliyatini osonlik bilan amalga oshirishi mumkin, u davlat vakilimi, shifokormi, tadbirkormi, qaysi kasb egasi bo'lishiga qaramay o'z ish faoliyatini kengaytirishda, rivojlantirishda, fikr almashish, qo'shimcha bilim va malakaga ega bo'lish uchun muhim bir vosita hisoblanadi. Shu borada yurtimizda chet tillarini o'qitish va o'rganish uchun yetarli ravishda shart-sharoitlar mavjud jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12-dekabr 2012-yildagi «Chet tillarini o'qitishni yanada takomillashtirish» to'g'risidagi qarori asosida yurtimizda tillarni o'rganish va ularni isloh qilish uchun yo'l ochildi. Yoshlarga tillarni o'rgatish uchun turli xildagi interfaol, an'anaviy va noan'anaviy dars metodlari ishlab chiqildi ayniqsa, chet tili metodisti, professor J.Jalolovning «Chet til o'qitish metodikasi» kitobida tillarni

o'qitish borasidagi zarur bir qator metodlar ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilar o'quvchilarni malakali til mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun ana shu kabi metodlardan foydalanadilar. Albatta bu o'z samarasini berib kelmoqda yoshlarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni oshirmoqda. Shuningdek, hozirgi paytda bir nechta tillarda o'z ona tili kabi so'zlashayotgan yoshlar ham kam emas va ularning safi kengayayotgani sir emas, ammo tilshunoslikda o'rganilishi kerak bo'lgan

yoʻnalishlar, adabiyotimizning ochilmagan tilsimlari borligi ham maʼlum. Nima uchun yoshlarimiz shu kabi yoʻnalishlarda tadqiqotlar olib bormayapti? Milliy adabiyotimiz, mumtoz sheʼriyatimizda va shu kabi adabiy asarlarimiz orasida rus tili va ingliz tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilinishi lozim boʻlgan asarlarimiz borligi sir emas. Bundan tashqari biror-bir tilni oʻrganishni uning adabiyotisiz tasavvur etish qiyin. Yoshlarimizda yoki biror-bir til oʻrganuvchining nutqidagi kamchiliklar esa oʻrganuvchining adabiyot kam mutolaa qilishidan dalolat beradi. Adabiyot bilan oshno boʻlgan inson nafaqat nutqidagi kamchiliklardan xoli bolishi, balki fikrlash qobiliyati kengayishi, shuningdek, maʼnaviy barkamol boʻlishi isbotlangan. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan oʻtkaziladigan «Yosh kitobxon» koʻrik-tanlovi amaliy misol boʻla oladi. Yurtning qaysi chekkasida yashamasin va qay shevada gaplashmasin agar u adabiyot bilan oshno boʻlsa adabiy shevada ham bemalol gaplasha oladi, oʻz fikrini ifodalay oladi. Zero, adabiyot atalmish xazinamizga yana va yana ajoyib yozuvchilar, Hamid Olimjon-u, Zulfiyalar, Gʻofur Gʻulom, Oʻtkir Hoshimovlar kerak. Bugungi kun yoshlari ham shular kabi oʻtkir qalam ishlari, ajoyib asarlarning mualliflari boʻlishiga ishonamiz. Shuni aytish lozimki, inson qaysi tilni oʻrganishidan va qaysi tilda soʻzlashishidan qatʼi nazar avvalambor oʻz ona tilini oʻzgalarga naʼmuna boʻla oladigan darajada mukammal bilishi va mehr qoʻyishi lozim deb hisoblayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. J.Jalolov. «Chet tillarini oʻqitish metodikasi». 2012
2. Djabbarov, S. (2020). article Ijtimoiy-psixologik kompetitlilik tushunchasi xususida. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4897](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4897)
3. Djabbarov, S. (2020). Бўлажак чет тил муаллимининг касбий тайёргарлиги ва уни шакллантириш йўллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4899](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4899)